Rashidova Xurriyat Sulaymonova	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
<i>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	919
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish	922
<i>Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi</i>	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn	927
<i>Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon</i>	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services	932
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	935
<i>Chakkanov Fakhriddin Xusanovich</i>	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health	938
<i>Irgashev Shokhruxh Khasanovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar	941
<i>Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna</i>	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari	945
<i>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</i>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari	948
<i>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</i>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
<i>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</i>	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi</i>	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
<i>Almatova Umida Islomovna</i>	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
<i>Nosirova Shohista Elmurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
<i>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</i>	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
<i>Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<i>Sh. D. Ablakulov</i>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
<i>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</i>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafoat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafruz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhomadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortoijiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari.....	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiev Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahabovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinova	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARI TARBIYASIDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi
2-kurs magistranti

ORCID: 0009-0000-7955-3668

Ilmiy rahbar: Tilavova Matlab Muhamadovna
PhD, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxsning dastlabki tarbiyaviy, axloqiy hamda ijtimoiy-psixologik poydevori shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Shu bois ushbu bosqichda maktab va oila o'rtasidagi samarali hamkorlik o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik va psixologik nuqtai nazardan yondashilganda, bola shaxs sifatida oilaviy muhit, ta'lim muassasasi hamda ijtimoiy atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar orqali kamol topadi.

Boshlang'ich ta'lim tizimida ota-onalar bilan o'zaro muloqot va hamkorlikning ijtimoiy-psixologik jihatlari dolzarb va ko'p qirrali masala bo'lib, ushbu jarayon o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlari, kommunikativ ko'nikmalari va emotsional barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oila va maktab o'rtasidagi muntazam aloqalar – o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi ochiq muloqot, uchrashuvlar, maslahatlar hamda elektron platformalar orqali axborot almashuvi – ta'lim sifati va tarbiyaviy natijalarning yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarning shakllanishida ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bolada hurmat, mas'uliyat, madaniyat singari fazilatlarni rivojlantirishda oila va maktabning uyg'un faoliyati uning sinf jamoasidagi xulq-atvori hamda tengdoshlari bilan munosabatlarini ijobiy yo'nalishda shakllantiradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, oila-maktab hamkorligi, ijtimoiy-psixologik omillar, pedagogik muloqot, ota-onalar ishtiroki, axloqiy tarbiya, kommunikativ ko'nikmalar, emotsional barqarorlik, ta'lim sifati, shaxs rivoji.

Abstract: Primary education represents a critical stage during which the initial moral, educational, and socio-psychological foundations of a child's personality are formed. Therefore, effective cooperation between family and school at this stage plays a significant role in the comprehensive development of learners. From pedagogical and psychological perspectives, a child's personality develops through continuous interaction among the family environment, educational institutions, and the broader social context.

The socio-psychological aspects of parental cooperation in primary education constitute a relevant and multifaceted area, as this interaction directly affects students' academic achievement, communication skills, and emotional stability. Regular collaboration between teachers and parents – including open dialogue, meetings, consultations, and information exchange through digital platforms – contributes to improving the quality of education and educational outcomes.

Furthermore, coordinated efforts between educators and parents are essential in fostering social and moral values. Jointly nurturing qualities such as respect, responsibility, and cultural awareness positively influences children's behavior in the classroom and their relationships with peers.

Key words: primary education, family-school cooperation, socio-psychological factors, pedagogical communication, parental involvement, moral education, communication skills, emotional stability, quality of education, personality development.



Аннотация: Начальный этап образования является важнейшим периодом, в ходе которого формируются первичные воспитательные, нравственные и социально-психологические основы личности. В связи с этим эффективное взаимодействие семьи и школы на данном этапе играет значимую роль в всестороннем развитии учащегося. С педагогической и психологической точек зрения личность ребёнка формируется в процессе взаимодействия семейной среды, образовательного учреждения и социального окружения.

Социально-психологические аспекты сотрудничества с родителями в системе начального образования представляют собой актуальную и многогранную проблему, поскольку данный процесс непосредственно влияет на успешность учебной деятельности, коммуникативные навыки и эмоциональную устойчивость учащихся. Регулярное взаимодействие семьи и школы – открытый диалог между учителем и родителями, встречи, консультации, а также обмен информацией посредством электронных платформ – способствует повышению качества обучения и воспитательных результатов.

Кроме того, согласованная деятельность педагогов и родителей играет важную роль в формировании социальных и нравственных ценностей. Совместное воспитание таких качеств, как уважение, ответственность и культура, положительно отражается на поведении ребёнка в классном коллективе и его взаимоотношениях со сверстниками.

Ключевые слова: начальное образование, сотрудничество семьи и школы, социально-психологические факторы, педагогическое взаимодействие, участие родителей, нравственное воспитание, коммуникативные навыки, эмоциональная устойчивость, качество образования, развитие личности.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim davri – o'quvchining shaxsiy rivoji, o'quv faoliyatini o'zlashtirish malakalari hamda jamiyatga moslashuv jarayonining asosiy poydevorini tashkil etadi. Ushbu bosqichda pedagog va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik nafaqat bolaning tarbiyaviy yo'nalishiga, balki ta'lim jarayonining izchil va sifatli tashkil etilishiga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy ta'lim sohasida olib borilayotgan yangilanishlarning markazida inson kapitalini rivojlantirish, ya'ni puxta bilimga ega, ma'naviy barkamol hamda ijtimoiy faol shaxsni voyaga yetkazish masalasi turadi. Ushbu maqsadga erishishda maktab, oila va jamiyat o'rtasidagi uch tomonlama hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ota-onalar bilan muntazam, samarali va tizimli muloqotning yo'lga qo'yilishi o'quvchi tarbiyasi hamda ta'lim natijalarining yuksalishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Pedagogik hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan masalalarni samarali bartaraf etishda ota-onalarni qo'llab-quvvatlash, ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga faol jalb etish muhim ahamiyatga ega. Turli motivatsion usullar, tanlovlar, rag'batlantiruvchi mukofotlar, ijodiy loyihalar hamda madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali ota-onalarning ishtiroki faollashadi, ularning pedagogik bilim va tarbiyaviy ko'nikmalari rivojlanadi. Natijada farzandning ijtimoiy, axloqiy hamda o'quv yutuqlariga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatiladi.

Shuningdek, ota-onalar o'rtasida yuzaga keladigan pedagogik kelishmovchiliklarni bartaraf etish ham dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayonda o'qituvchi turli seminarlar, kichik guruhlarda tashkil etilgan mashg'ulotlar hamda interaktiv maslahatlashuvlar orqali ota-onalarni o'zaro kelishuv va yagona pedagogik yondashuvga erishishga yo'naltiradi. Natijada ota-onalar bir-birining pozitsiyasini anglay boshlaydi, tarbiyaviy masalalar bo'yicha qarorlarni hamkorlikda qabul qiladi va ta'lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatlar sezilarli darajada kamayadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash jarayonida oila va maktab hamkorligi masalasi pedagogik adabiyotlarda muhim ilmiy mavzu sifatida yoritib kelinmoqda. Jumladan, B. Karimovning "Pedagogika asoslari" asarida tarbiya jarayoni uzluksiz va tizimli jarayon sifatida talqin qilinib, unda oila muhitining shaxs shakllanishidagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Muallif ta'lim sifati va tarbiyaviy natijalarning barqarorligi ko'p jihatdan ota-onalarning pedagogik jarayonga ongli ishtirokiga bog'liqligini ilmiy asoslaydi.

Shuningdek, J. Yo'ldoshev va O. To'rayevlarning "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" nomli tadqiqotida boshlang'ich ta'lim bosqichida pedagog va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik o'quv faoliyatining samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik omil sifatida baholanadi. Mualliflar ota-onalar bilan muloqot, maslahatlar va hamkorlikka asoslangan tarbiyaviy faoliyat bolalarning axloqiy sifatleri hamda ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. D. Rasulovning 2022-yilda chop etilgan "Ota-ona va maktab hamkorligining psixologik jihatlari" asarida esa hamkorlikning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tahlil qilinib, o'qituvchi–ota-onabola uchligi o'rtasidagi ijobiy munosabat emotsional barqarorlik va tarbiyaviy muhitga kuchli ta'sir ko'rsatishi asoslab beriladi.



Zamonaviy pedagogik izlanishlarda esa oila–maktab hamkorligini yangi yondashuvlar asosida rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. A. Hasanovning "Ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari" asarida ta'lim sifatini oshirishda ijtimoiy sheriklik va ota-onalar bilan samarali hamkorlik boshqaruvning muhim elementi sifatida talqin etiladi. N. Xodjayeva tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan ilmiy maqolada esa boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar orqali ota-onalar bilan muloqotni kuchaytirish imkoniyatlari tahlil qilinib, elektron platformalar hamkorlikning uzluksizligini ta'minlovchi samarali vosita ekani ta'kidlanadi. Ushbu tadqiqotlar boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tizimli va zamonaviy yondashuv asosida tashkil etish muhimligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasini o'rganish maqsadida kompleks tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va suhbat usullari orqali to'plandi. Kuzatuv jarayonida o'qituvchi va ota-onalar o'rtasidagi muloqot shakllari, hamkorlikning mazmuni hamda uning o'quvchi xulq-atvoriga ta'siri tahlil qilindi. Ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalarda orqali ularning hamkorlikka munosabati, pedagogik savodxonlik darajasi hamda muammoli holatlar aniqlandi. Suhbat usuli esa tarbiyaviy jarayonda yuzaga keladigan real vaziyatlarni chuqurroq anglash imkonini berdi. Olingan ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil asosida umumlashtirildi, taqqoslash va tizimlashtirish usullari yordamida xulosalar chiqarildi, natijada ota-ona va maktab hamkorligining samaradorligini oshirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik hamkorlik jarayonida uchraydigan dolzarb masalalardan biri – ota-onalar va pedagog o'rtasida tarbiyaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirishdagi murakkabliklardir. Ba'zi ota-onalar farzand tarbiyasida qat'iy nazoratni ma'qul ko'rgan bo'lsa, boshqalar erkinroq, moslashuvchan metodlarni afzal biladi. Bunday qarashlar o'rtasidagi tafovut ta'lim jarayonida muayyan kelishmovchiliklar va tushunmovchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bunday holatlarda o'qituvchi ota-onalar bilan samarali muloqot olib boradi, metodik tavsiyalar beradi hamda farzand tarbiyasiga oid yagona pedagogik yo'nalishlarni birgalikda shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, interaktiv darslar, treninglar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar ushbu jarayonni qo'llab-quvvatlovchi asosiy pedagogik vositalar sifatida xizmat qiladi. Natijada tarbiyaviy qarashlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar kamayadi va hamkorlikning samaradorligi oshadi.

Pedagogik hamkorlikdagi dolzarb muammolardan yana biri – ota-onalarning pedagogik bilim darajasining yetarli emasligidir. Ba'zi ota-onalar ta'lim-tarbiya metodlarini noto'g'ri qo'llashi, farzand tarbiyasida xatoliklarga yo'l qo'yishi yoki pedagogik tavsiyalarni qabul qilmasligi mumkin. Shu bois o'qituvchi muntazam ravishda treninglar, seminarlar va master-klasslar orqali ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirishi lozim. Amaliy mashg'ulotlar esa ota-onalarga farzand tarbiyasida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarni tahlil qilish, ularni hal etish strategiyalarini o'rganish hamda pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini yaratadi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish pedagogik hamkorlikdagi muammolarni bartaraf etishda qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim etadi. Elektron kundaliklar, mobil dasturlar, onlayn forumlar va video-darslar orqali ota-onalar ta'lim-tarbiya jarayonida doimiy ishtirok etadi, farzandning rivojlanish holatini kuzatadi va metodik tavsiyalar oladi. Shu yo'l bilan pedagogik jarayon uzluksiz davom etadi hamda maktab va oila o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi.

Hamkorlikning ta'lim sifatiga ta'siri

Bilimning rivojlanishi

Ota-onaning farzandining o'quv jarayoniga befarq bo'lmasligi, darsga tayyorgarligini nazorat qilishi va darsdan tashqari savollar bilan shug'ullanishi bolaning bilim darajasini oshiradi. Shu tarzda o'quvchi savol berishga va yangi bilimlarni egallashga intiladi, natijada ta'lim sifati yaxshilanadi.

Tarbiyaviy yondashuv

Boshlang'ich sinf o'quvchisining axloqiy qoidalarni o'zlashtirishida ota-onalar va o'qituvchi o'rtasida uyg'un yondashuv mavjud bo'lsa, bola turli muhitlarda ziddiyatli talablar bilan duch kelmaydi. Bu esa uning shaxsida barqaror ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarning shakllanishini ta'minlaydi.

Rivojlanish muvozanati

Ota-onaning pedagogik bilim va tajribasi yuqori bo'lsa, u farzandning o'qishga bo'lgan qiziqishi va munosabatini shakllantira oladi. Uy sharoitida kitoblar, qo'shimcha mashg'ulotlar va darslar tashkil etilishi bolaning intellektual rivojiga xizmat qiladi. Natijada o'quvchi sinfda faol ishtirok etadi, kreativ fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Emotsional xavfsizlik

Ota-onasi maktab bilan yaqindan hamkorlik qiladigan bola o'zini himoyalangan va qulay muhitda his qiladi. U maktab muhitini ijobiy qabul qiladi, bu esa ruhiy barqarorlikni ta'minlab, ta'lim sifatini yaxshilashda muhim psixologik omil hisoblanadi.

Pedagogik hamkorlikda ota-onalarni faol jalb etish

Asosiy g'oya

Ota-onalarni pedagogik jarayonga jalb qilishning eng muhim omillaridan biri – ularni tarbiyaviy jarayonda mas'uliyatni chuqur his qilishga o'rgatishdir.

Uy vazifalarini nazorat qilish

Ota-ona farzandning uy vazifalarini muntazam kuzatib, bilimni mustahkamlash jarayonini qo'llab-quvvatlaydi.

O'quv jarayonini mustahkamlash

Darsdan tashqari mashg'ulotlar, savol-javoblar va qo'shimcha topshiriqlar orqali ota-ona o'quv jarayoniga faol hissa qo'shadi.

Ijodiy faoliyatni rag'batlantirish

Bolaning kreativ qobiliyatini rivojlantirish va yangi g'oyalarni amalda qo'llashda ota-ona muhim ko'mak beradi.

Natijalar

Ota-onalar farzandining rivojlanishini yaqindan kuzatadi, o'z pedagogik malakasi va tarbiyaviy qobiliyatini oshiradi hamda ta'lim jarayoni va tarbiyaviy muhitning samaradorligi sezilarli darajada yaxshilanadi. Shu tarzda ota-onalarni pedagogik jarayonga faol jalb etish nafaqat bolaning bilim va ijtimoiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, balki ota-onalarning o'z pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishiga ham xizmat qiladi.

Loyiha asosida pedagogik hamkorlik

Markaziy g'oya


Loyiha yondashuvi pedagogik hamkorlikning samarali vositasi bo'lib, ota-onalarni faol ishtirok etishga undaydi.

Ota-ona va farzandlar faoliyati

Birgalikda ekologik, madaniy, ijtimoiy yoki ijodiy loyihalarni rejalashtirish va amalga oshirish, bolalarning tashabbuskorligini hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik jarayonda ota-onaning amaliy tajriba orttirishi va o'qituvchi bilan hamkorligini kuchaytiradi.

Bolalar rivoji

Ijtimoiy mas'uliyatni his qilish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, muammolarni mustaqil hal qilish hamda jamoada samarali ishlash qobiliyatlari shakllanadi. Loyiha asosidagi yondashuv ota-onalar va bolalar o'rtasidagi pedagogik hamkorlikni mustahkamlab, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi hamda amaliy pedagogik tajriba orttirishga imkon yaratadi.





Asosiy yo'nalish | Mazmuni

Hamkorlik mohiyati

Pedagogik hamkorlik to'g'ri yo'lga qo'yilganda, bola-ota-ona-o'qituvchi o'rtasida ishonchli, barqaror va natijaga yo'naltirilgan ta'lim muhiti shakllanadi.

Zamonaviy yondashuvlar

Yangi avlod texnologiyalari, interaktiv metodlar va ijodiy loyihalar hamkorlikni uzluksiz, qiziqarli va samarali jarayonga aylantiradi.

Ota-onaning roli

Ta'lim jarayoniga faol jalb etilgan ota-ona o'zining pedagogik rolini mustahkamlaydi, bolaga mehr va qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi.

Bolalar rivoji

Hamkorlikning kuchli bo'lishi bola shaxsida ijtimoiy, axloqiy va akademik rivojlanishni ta'minlaydi, uning motivatsiyasi hamda o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Natija

Uslubli, tizimli va o'zaro hurmatga asoslangan hamkorlik umumiy ta'lim sifatini oshiradi va barcha ishtirokchilar manfaatini uyg'unlashtiradi.

Pedagogik hamkorlikni yanada mustahkamlash hamda oila-maktab o'rtasida izchil va samarali hamkorlik muhitini shakllantirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

1. Ota-onalar bilan muntazam muloqot tizimini yo'lga qo'yish.

Elektron kundaliklar, raqamli platformalar, mobil ilovalar va onlayn aloqa kanallari orqali o'quvchining kundalik rivojlanishi, bilimni o'zlashtirish darajasi hamda psixologik holatini doimiy kuzatib borish, axborot almashinuvini tez va aniq tashkil etish maqsadga muvofiq.

2. Ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish.

Ma'rifiy treninglar, seminarlar, mahorat darslari, uchrashuvlar va psixologik konsultatsiyalar orqali ota-onalarga farzand tarbiyasi, yosh xususiyatlari, zamonaviy metodikalar hamda kommunikativ yondashuvlar bo'yicha amaliy ko'nikmalar berish zarur.

3. Interaktiv metodlar orqali ota-onalarni fikrlash jarayoniga jalb qilish.

Guruh ishlari, munozaralar, muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar va hamkorlikka asoslangan mashg'ulotlar ota-onalarning pedagogik tafakkurini rivojlantiradi hamda ularda ta'lim jarayoniga mas'uliyatli munosabatni kuchaytiradi.

4. Ijodiy loyihalar va oilaviy topshiriqlarni tashkil etish.

Turli loyiha ishlari, ijodiy faoliyat, tanlovlar, oilaviy tadbirlar va qiziqarli ko'rgazmalar orqali ota-onalarni farzandi bilan birgalikda faol ishtirok etishga undash ularning hamkorlikdagi rolini yanada boyitadi.

5. Pedagogik hamkorlik samaradorligini baholash tizimini joriy etish.

Muntazam monitoring, tahliliy hisobotlar, so'rovnomalalar, kuzatuvlar va diagnostika vositalari yordamida oila-maktab hamkorligining natijalari o'lchanadi, mavjud kamchiliklar aniqlanadi hamda jarayonni takomillashtirish yo'llari belgilanadi.

6. Motivatsion tizimlar orqali ota-onalar faolligini oshirish.

Rag'batlantiruvchi tashabbuslar, faol ota-onalarni e'tirof etish, taqdirlash tizimlari, ijobiy fikr-mulohazalar va ochiq muloqot muhiti ota-onalarning pedagogik jarayonda faol va ongli ishtirokini kuchaytiradi.

Tizimli, uzluksiz va natijaga yo'naltirilgan pedagogik hamkorlik oila va maktab o'rtasida ishonch, hamjihatlik hamda o'zaro mas'uliyatni mustahkamlaydi. Bunday hamkorlik bolalarning ma'naviy yuksalishi, ijtimoiy moslashuvi, axloqiy ongining shakllanishi va akademik rivoji uchun zarur bo'lgan sog'lom tarbiyaviy muhitni ta'minlaydi. Natijada o'quvchi shaxs sifatida yetuk shakllanadi, oila esa ta'lim jarayonining faol hamkoriga aylanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi muntazam hamkorlik nafaqat o'quvchi shaxsining shakllanishida, balki ta'lim sifatini barqaror rivojlantirishda ham strategik ahamiyat kasb etadi. Maktab va oila o'rtasidagi pedagogik aloqalar mustahkam bo'lganda, bola ikki muhit o'rtasida qarama-qarshi talablar girdobida qolmaydi; aksincha, tarbiya va ta'lim jarayoni yagona maqsad sari yo'naltiriladi.

Ota-onaning farzand ta'limiga befarq bo'lmasligi, uy sharoitida zarur rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishi hamda o'qituvchi tavsiyalariga amal qilishi o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, mas'uliyat tuyg'usini shakllantiradi va darslardagi faolligini oshiradi. Pedagogik hamkorlikning uzluksiz yo'lga qo'yilishi, ayniqsa, axloqiy qadriyatlarni singdirishda muhim o'rin tutadi.

Uyg'un pedagogik yondashuv mavjud bo'lgan oilada bola o'zini ishonchli, xavfsiz va qo'llab-quvvatlangan holda his qiladi. Bu holat o'quvchining ruhiy barqarorligiga, ijtimoiy moslashuviga va o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirishga qaratilgan seminarlar, treninglar va amaliy mashg'ulotlar ularning farzand rivojini chuqurroq anglashiga xizmat qiladi.

Mazkur jarayon nafaqat tarbiyaviy xatolarning oldini oladi, balki ota-ona va o'qituvchi o'rtasida o'zaro ishonch asosida shakllangan samarali muloqotni ham mustahkamlaydi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish esa hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillashtiradi. Elektron kundaliklar, mobil ilovalar, onlayn maslahatlar va videodarslar orqali ota-onalar ta'lim jarayonidan doimo xabardor bo'lib turadi. Bu esa ta'lim jarayonining ochiqligi, shaffofligi va qulayligini oshiradi.

Umuman olganda, maktab va oila o'rtasidagi hamkorlik tizimli tarzda yo'lga qo'yilgan taqdirda, o'quvchining intellektual rivoji, axloqiy qarashlari, ijtimoiy faolligi va o'quv motivatsiyasi yuksaladi. Demak, boshlang'ich ta'limda sifatni oshirishning eng muhim omillaridan biri o'qituvchi va ota-ona o'rtasidagi mazmunli, doimiy hamda o'zaro mas'uliyatga asoslangan samarali hamkorlik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov B. Pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021. – 240 b.
2. Yo'ldoshev J., To'rayev O. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – 198 b.
3. Rasulova D. Ota-ona va maktab hamkorligining psixologik jihatlari. – Toshkent: Innovatsion ta'lim, 2022. – 176 b.
4. Hasanov A. Ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy yondashuvlari. – Toshkent: Sharq, 2019. – 212 b.
5. Xodjayeva N. Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar: imkoniyat va muammolar // Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2023. – №2. – B. 45–52.
6. <https://uzedu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rasmiy sayti
7. <https://ziyonet.uz> – Ziyonet ta'lim portali
8. <https://eduportal.uz> – Elektron ta'lim platformasi
9. <https://kutubxona.uz> – Elektron kutubxona
10. <https://researchgate.net> – Ilmiy maqolalar platformasi

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.